

Muzey - moziy ko'prigi

Joriy yilning 26 - mart kuni TIQXMMI Qarshi filiali Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi 127-guruh talabalari guruh murabbiyi I.G'aniyev boshchiligida Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalarga muzey katta ilmiy xodimi R.Hasanov Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 1975 yilda Qarshi shahrida tashkil etilganligi, muzeyda tarix, xalq amaliy san'ati, tabiat, xotira va qadriyat bo'limlari borligini, muzey fondida 38 mingdan ziyod numizmatika, arxeologiya, tasviriy va amaliy san'at asarlari, tarixiy hujjatlar, nodir qo'lyozmalar, kitoblar, maishiy va etnografiyaga oid eksponatlar mavjudligi haqida ma'lumot berib, talabalar tomonida berilgan qiziqarli savollarga javob berdi.



Shuningdek, talabalar muzeyda yosh olimlar tomonidan ilmiy tekshirish ishlari ham olib borilayotganligining guvohi bo'lishdi. Voha tarixini, san'at asarlarini o'zida jamlab, beminnat xizmat qilib kelayotgan Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga bugungi kunda tashrif buyuruvchilari sonining tobora ortib borayotgani tahsinga sazovor.



Muzeylar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ma'naviyat ko'prigi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi binosi Qarshi shahrining ko'rkiga ko'rk qo'shish bilan birga aholi, shu jumladan, yoshlarimizni tariximizga, milliy urf-odat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

TIQXMMI Qarshi filiali Ilhom G'aniev axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati